



## BOLALAR VA OTA-ONALAR MUNOSABATLARI.

## Alimatova Shirin Sanjar qizi

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya institutining (TMCI) talabasi Toshkent, O'zbekiston

E-mail: shirinalimatova@gmail.com +998 90 788 73 14

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda bolalar va ota-onalarning munosabatlari masalalari o'rganiladi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning emotsiyalari va psixologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Tezisda oilaviy ta'limga, ota-onalarning tarbiyaviy usullari, bolalarning xulq-atvorini shakillantirishda ularning roli hamda o'zaro hurmat va ishonchni rivojlantirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda ota-onalarning va bolalarning aloqaning o'zgarishi, kommunikatsiya va konfliktlarni hal qilish usullari haqida ham so'z yuritiladi.

**Kalit so'z:** bolalar va ota-onal munosabatlari, oilaviy ta'lim, tarbiyaviy usullar, emotsiyal rivojlanish, psixologik rivojlanish, xulq-atvor, pedagogika, ijtimoiy fanlar, oilaviy psixologiya.

KIRISH

Bolalar va ota-onalarning munosabatlari inson hayotining eng muhim va asosiy aspektlaridan biridir. Oila-bu farzandlarning dastlabki tarbiya va ta'lim olish joyi bo'lib, uning psixologik, emotsiyal va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalariga nafaqat turmush tarzi va axloqiy qadriyatlarni, balki ularning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradigan ko'nikmalarni ham o'rgatadilar. Yaxshi ota-onalarning munosabatlari bolalar uchun sog'lom o'sish va o'zligini anglash uchun zarur sharoit yaratadi. Boshqa tomondan, ota-onalarning tomonidan yetarli e'tibor va to'g'ri tarbiya bo'lmasligi bolaning kelajakdagi hayoti va ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, nafaqat individual oilaning farovonligini, balki jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Ota-onaning tarbiyasi bolaning emotsiyal holati, o'ziga bo'lgan ishonchi va jamiyatga qo'shilishida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ota-ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bolaning "xavfsizlik" hissini shakllantirishda, shuningdek "identifikasiya" ( o'zligini anglash ) va "quvvatlantirish ( ixtiyoriy xulqni rivojlantirish ) jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. "O'z - o'zini anglash" bosqichidagi masala ( yosh o'smirlik ) bola uchun ota-ona bilan bo'lgan munosabatlarining chuqurlashishini anglatadi. Shu bilan birga, tarbiya uslublari ham muhim omil hisoblanadi.

Bola ota-onadan olingan tarbiya orqali ijtimoiy ro'yhatdan o'tadi va o'zaro aloqalar orqali o'zini shakllantiradi. Masalan, "avtoritar" tarbiya ( qatiq tartib va boshqaruv ) uslubi bolada xavotir, noqulaylik va o'zini anglashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, chunki bu uslub bolaning o'zini anglashini, mustaqillik va ijtimoiy o'zaro aloqalarini cheklaydi. "Avtoritativ" tarbiya uslubi bola uchun ongli va barqaror o'sishga yordam beradi.

Bolalar va ota-onalarning oʻrtasidagi munosabatlar nafaqat bola rivojlanishida, balki uning jamiyatga integratsiyasida ham muhim rol oʻynashini koʻrsatadi.



Ota-onaning bolaning ehtiyojlariga javob berishi va uning xavfsizligini ta'minlashi zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bog'lanishning sifatini tushunish uchun bolaning ota-onaga bo'lgan reaksiyalarini tahlil qilish zarur. Bolaning bog'lanishi qanday rivojlanishini va uning xavfsiz yoki xavfli bo'lishini ko'rsatadi.

Xavfsiz bog'lanish bolaning ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishining salbiy oqibatlaridan himoya qiladi. Xavfsiz bo'lмаган bog'lanishlar esa bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi, masalan, xavotirli yoki passiv bo'lishiga olib kelishi mumkin. Xavfsiz bo'lмаган bog'lanishning turlari, masalan, preokupatsiya ( bola doimiy ravishda ota-onaning e'tiborini izlaydi ) va distanslashish ( bola ota-onadan hissiy jihatdan uzoqlashadi ) holatlari mavjud.

O'zaro hurmat bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning asosi hisoblanadi. Hurmat bilan o'rnatilgan muloqot bolaga o'z fikrini ifoda etish va qarorlar qabul qilishda mustahkam asos yaratadi.

Bu esa, bolalarda o'z-o'zini hurmat qilish hissini rivojlantiradi. Ota-onalar bolalarining fikrlarini tinglab, ular bilan qarorlar qabul qilishda birgalikda ishtirok etishlari, bolalarga o'zini qadirlashni o'rgatadi.

Muloqot orqali ota-onalar bolalarining ruhiy holatini tushunib, ularni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bolalar, ayniqsa, kichik yoshda ota-onalarining munosabatlarini kuzatib, o'zlariga dunyoqarash va munosabatlar modelini shakllantiradilar.

Agar ota-onalar o'rtasida mehr-muhabbat, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash bo'lsa, bola sog'lom rivojlanadi va o'z o'rmini topishda yordam topadi.

Bolalar o'sib ulg'aygan sari ota-onalar bilan munosabatlari o'zgaradi. Kichik yoshdag'i bolalar ota-onalariga to'liq bog'liq bo'lsa, kattaroq yoshda esa mustaqil qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Bu o'zgarishlar ota-onalar va bolalar o'rtasida yangi, o'zaro hurmatga asoslangan aloqalarni talab qiladi. Bazi hollarda, ziddiyatlar bolalar va ota-onalar o'rtasida turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, masalan, turli qiziqishlar, farqli fikrlar yoki tarbiyaviy uslublar. Ziddiyatlar bolaning rivojlanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- Ijobiy ta'sir: Ziddiyatlar bolaning o'zini ifoda etish qobiliyatini oshirishi, mustaqil fikrlashga o'rgatishi mumkin. Ziddiyatlarni konstruktiv tarzda hal qilish bolaning mas'uliyatni his qilishga va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

- Salbiy ta'sir: agar ziddiyatlar tez-tez yuzaga kelib, hal qilinmasa, bolaning o'zini past baholashiga, stress va xavotirga olib kelishi mumkin. Ular o'zlarining his-tuyg'ularini ifoda etishda qiynalishi, isyonkorlik yoki tartibsizlikni ko'rsatishi mumkin.

Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar, texnologiyalarning rivojlanishi, onlayn muloqot va boshqa omillar ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar internet va media orqali yangi axborotlarni tezda olishadi, bu esa ularning qarashlarini va xulq-atvorini o'zgartiradi.

Ota-onalar bu o'zgarishlarga moslashish va bolalarining yangi texnologiyalarni xavfsiz va maqsadli ishlatishga o'rgatishlari zarur.

Xulosa ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar har bir bola uchun shaxsiy rivojlanishning poydevori hisoblanadi.



Yahshi aloqalar, to'g'ri tarbiya, hurmat va muloqotning o'rnatilishi bolaning ijtimoiy, psixologik va intellektual o'sishini qo'llab-quvvatlaydi.

Ota-onalar o'z bolalari bilan sog'lom munosabatlар о'rnatib, ularning muvaffaqiyatli va baxthli hayotga qadam qo'yishlariga yordam berishlari kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Vygotskiy L.S.- "Psixologiya va pedagogika" asarlari. 1926 yil
2. Erikson E. H. - ( Psixosotsial rivojlanish ) " Childhood and Society". New York. 1953 yil.
3. Jean Piaget - "Bolalar rivojlanishining psixologiyasi". 1947 yil.
4. Diana Baumrind - "ota-onalik hokimiyati turlari va bola rivojlanishi" 1971 yil.
5. John Bowlby - "Bog'lanish va Yo'qotish" New York. 1969 yil.